

6. Ilyich, M. E. (2023, November). Aspects of improving the education system in technological universities. In E Conference World (No. 2, pp. 128-137).

7. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In E Conference World (No. 2, pp. 160-164).

8. Laylo, B., & Malika, D. (2023). Capabilities of scratch for working with animations. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 1118-1120.

9. Uroкова Sharofat. (2023). Digitalization of education at the present stage of development. World Bulletin of Management and Law, 23, 60-63. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2873>

10. Бакиева, З. Р. (2014). Дистанционное обучение в системе непрерывного профессионального образования республики Узбекистан. In Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации (pp. 174-176).

TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sayfullayeva Shahzoda Zokir qizi

**Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi
talabasi**

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarini qo'llash tobora keng tus olmoqda. O'quvchilar uchun mo'ljallangan ta'limdan ko'zlangan mazmun va maqsad bitta o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash, o'quvchilarning o'z xohishi, istaklari va qiziqishlari bo'yicha mustaqil bilim egallash, egallagan bilimlarini esa kerakli o'rinlarda unumli qo'llay olish, dastlabki kasb ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ana shunday vazifalarni amalga oshirish uchun dars jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish samarali va natijaviy usul ekanligi

ahamiyatlidir. Buning uchun o'qituvchi multimedia texnologiyalarining mohiyatini anglay bilishi va ularni o'z o'rnida qo'llay bilishi zarur.

Multimedia tushunchasi – turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasini anglatadi. Multimedia texnologiyalari – bu turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasidir. Multimedia texnologiyalariga avvalo, tovushlar, video-elementlarni qayta ishlovchi vositalar kiradi.

Ma'lumki, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini boyitadi, o'quv materiali ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralilashtirish imkonini beradi. Multimedia - bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audiosamara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni bir raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi. Gipermedia - bu multimediali obyektlarda qo'llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog'liq kompyuter fayllaridir. Ta'limni kompyuter va boshqa internettexnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchilklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog'liq muammo bo'lishi ham mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD-disklari deb ataladigan optik kompakt disklar yordamida hal etilishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim vositalari - interaktiv, audio-vizual, multimediali o'quv jihozlari - shunchaki zamonaga mos rusumga aylanib borayotgan vositalar emas, balki o'quvchilar shaxsini rivojlantirish uchun variativ imkoniyatdir. Zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi esa shunchaki bilim berishdangina emas, balki o'quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini loyihalashtirishga yordam berishdan iborat. Har qanday nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanishi zarur. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, qiziqtirish juda muhim. O'qitishni qiziqarlilashishi hamda unda barcha talabalarning to'liq fikru-zikri bilan faollashishi asosida ta'lim jarayoni juda samarali o'tadi. Bunda ko'rgazmali vositalar ham muhim o'rin tutadi, ular axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi natijasida avvalo, ta'limning universal ta'siri, uning asosida esa - foydali malaka va ko'nikmalar, nihoyat keng doiradagi salohiyatlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda multimedia texnologiyalari - ta'lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish o'quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shu sababli ham bugungi kun o'qituvchisi tinimsiz o'z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg'or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan shaxs sifatida o'z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo'lishi davr talabidir. Xususan, ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish qulayliklar yaratadi. Bunday darslar kelajakda ilmiy-ijodiy ishlarni tashkil etishda va tadqiqot ishlarini olib borishda, eng asosiysi, ta'lim olishga, fanga va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xodiev B.Yu va boshqalar. "Informatika" Oliy o'quv yurtlari uchun dasrlik. Toshkent. TDIU 2010
2. G'ulomov C.C. Alimov R.X, va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Sharq. Toshkent 2000
3. Abdurakhmanova, S. A. (2018). Developing Students' Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies. www.auris-verlag.de.
4. Muratov Elvin Ilich. (2022). Problems of choosing innovative strategies for the educational process based on empirical methods. *World Bulletin of Social Sciences*, 8, 101-103. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/732>
5. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In *E Conference World* (No. 2, pp. 160-164).
6. Uroкова Sharofat. (2023). Digitalization of education at the present stage of development. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 60-63. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2873>

7. Mamarajabov O.E. Benefits of Using Information Technology in the Education System // Vocational Education. Tashkent, 2019. No.1. P. 55-59

8. www.ictcouncil.gov.uz

9. tami.uz/kitob.php

10. uz.denemetr.com/docs/769/index-317671-1.htm

znanio.ru/media/multimediyaning_tushunchalari

OLIV TA'LIMDA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA TALABALARNING GRAFIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

Ashirbayev A., dotsent, TDPU

Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarning grafik madaniyati kasbiy madaniyatining bir qismi sifatida baholani b, grafik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish sharoitida elektron multimediyali texnologiyalardan foydalanish orqali intensiv o'qitish mumkinligi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar.** Grafik madaniyat, kasbiy madaniyat, multimediyali texnologiya, grafik madaniyatni shakllantirish, bilim, ko'nikma, malaka,*

***Annotatsiya.** V dannoy state daetsya otsenka kachestva chasty professionalnoy kulturny studentov graficheskoy kulturny i osvещaetsya vozmojnost intensivnogo obucheniya s ispolzovaniem elektronnyx multimediyных texnologiy v usloviyax formirovaniya i razvitiya graficheskoy kulturny.*

***Klyuchevye slova.** Graficheskaya kultura, professionalnaya kultura, multimediyные texnologii, formirovanie graficheskoy kulturny, znaniy, umeniy, navykov,*

***Annotation.** This article evaluates the quality of a part of the professional culture of students of graphic culture and highlights the possibility of intensive training using electronic multimedia technologies in the context of the formation and development of graphic culture..*